

TEKNOLOGIYA VA INTERNETNING O'ZBEK TILIGA TA'SIRI

Saloxiddinova Sayyora Aliqulovna

O'zDJTU 1-ingliz Umumiy Tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: sayyorasaloxiddinova0109@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar va internetning o'zbek tiliga ta'siri tahlil qilinadi. Internet kommunikatsiyasi orqali yangi so'zlar, qisqartmalar va muloqot uslublari qanday shakllanayotgani ko'rib chiqiladi. Shuningdek, internetning ijtimoiy va madaniy jihatdan til o'zgarishiga ta'siri tahlil qilinib, til me'yorlarini saqlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: internet tili, texnologiya, o'zbek tili, lingvistik o'zgarishlar, qisqartmalar, ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy so'zlar, kommunikatsiya, yozma madaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние современных технологий и интернета на узбекский язык. Рассматривается, как новые слова, сокращения и стили общения формируются посредством интернет-коммуникации. Также анализируется влияние интернета на языковые изменения в социально-культурном плане и даются рекомендации по поддержанию языковых стандартов.

Ключевые слова: интернет-язык, технологии, узбекский язык, языковые изменения, сокращения, социальные сети, иностранные слова, коммуникация, письменная культура.

Abstract. This article analyzes the impact of modern technologies and the Internet on the Uzbek language. It examines how new words, abbreviations, and communication styles are formed through online communication. It also examines the impact of the Internet on linguistic changes in the socio-cultural context and provides recommendations for maintaining language standards.

Keywords: Internet language, technology, Uzbek language, linguistic change, abbreviations, social networks, foreign words, communication, written culture.

Bugungi globallashuv davrida texnologik yutuqlar inson hayotining har bir jabhasiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ayniqsa, internet va raqamli aloqa vositalarining rivojlanishi axborot almashinuvi, fikr bildirish, o'zaro muloqot jarayonlarida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Raqamli kommunikatsiya imkoniyatlari insoniyatga tezkorlik, qulaylik, erkinlikni taqdim etgan bo'lsa-da, u til, madaniyat, odob-axloq me'yorlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Xususan, o'zbek tili ham bu o'zgarishlardan chetda qolmadi. Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Telegram, Facebook, TikTok va boshqalar), messenjerlar va bloglar tili kundan-kunga o'zgarib bormoqda. Bu sohalarida qisqalik, tezkorlik, vaqt tejallishi asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli foydalanuvchilar qisqartmalar, ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar, emodzilar, shuningdek, tovush o'xshashligi asosida yangi yozuv shakllarini keng qo'llamoqda. Bu so'zlarning ba'zilarini quyida ko'rib chiqishimiz mumkin:

- Un, u-n, u/n uchun
- Bn, b-n, b/n bilan
- Ln - Lekin
- Kk- Kerak
- Bb= Bo'lib
- Db= Deb

- H= Ha
- Yo= Yo‘q
- ”W” - Sh-harfining o‘rniga qo‘llaniladi.
- ”C” esa –Ch- harfining o‘rniga qo‘llaniladi.

Bunday yozuv uslubi, ayniqsa, yoshlar orasida tezlik bilan tarqalmoqda. Ular telefon va internet orqali yozishganda ushbu uslublarni o‘zaro muloqot vositasi sifatida qo‘llaydilar. Bu esa asta-sekin rasmiy yozuvga ham singib borayotgani, hatto ayrim holatlarda darslarda, insholarda yoki rasmiy hujjatlarda ham kuzatilayotgani xavotirli holatdir. Yuqoridagi holatlar tufayli adabiy til me‘yorlari zaiflashmoqda. Yozma nutqda grammatik xatolar, imlo buzilishi, gap qurilishi bo‘yicha kamchiliklar kuchaymoqda. Ayniqsa, tilga e‘tiborsizlik natijasida yozma savodxonlik darajasi pasaymoqda. Yoshlar orasida fonetik yozuv, ya‘ni qanday eshitilsa shunday yozish (masalan, "kelayapman" o‘rniga "kelayapman" emas, balki "kelayapman" kabi) keng tarqalmoqda. Tilshunoslilar bu holatni "internet tili" deb ataydilar. Devid Kristalning fikriga ko‘ra, bu til o‘zining leksik va uslubiy xususiyatlariga ega bo‘lgan alohida submadaniyatga aylangan. U o‘zining "Language and the Internet" nomli asarida harflarni to‘g‘ri tanlash, ularni e‘tiborsizlik bilan qisqartirmaslik, matn yozishda savodli bo‘lish muhimligini ta‘kidlaydi. U, shuningdek, matn yozish orqali savodxonlik oshishini, ya‘ni ko‘p yozgan kishi ko‘p o‘qiydi, ko‘p o‘qigan kishi esa savodli bo‘ladi, degan g‘oyani ilgari suradi.

Bugungi kunda internetdagi aksariyat kontent ingliz tilida yaratiladi. Shu sababli inglizcha so‘zlar o‘zbek tiliga tez-tez kirib kelmoqda. Masalan, like, story, video, blogger, trend, meme, content, stream kabi so‘zlar endilikda kundalik nutqimizda bemaol qo‘llanilmoqda. Bunday o‘zlashmalar ba‘zida muqobil o‘zbekcha atamalarining shakllanmasligiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, ingliz tilidan so‘z olish muammo emas, agar ular o‘zbek tilining fonetik, morfologik va sintaktik me‘yorlariga moslashtirilsa. Aks holda bu holat o‘zbek tilining o‘ziga xosligini zaiflashtiradi va tilda sun‘iy gibridlik yuzaga kelishiga olib keladi. Tilni asrab-avaylash va uni zamonaviylashtirish mas‘uliyati faqat filologlar yoki o‘qituvchilar zimmasiga yuklanmasligi kerak. Bu har bir fuqaroning, ayniqsa, yosh avlodning vatan oldidagi burchidir. Buni quyidagilar orqali amalga oshirish mumkin:

Ta‘lim tizimida tilga e‘tibor:

Maktab darsliklari zamonaviy til uslubini inobatga olgan holda, lekin adabiy til me‘yorlariga asoslangan bo‘lishi kerak.

OAV (Ommaviy axborot vositalari) va blogerlar mas‘uliyati:

Matbuot, televideniye, radio, blogerlar, ijtimoiy tarmoq faollari tildan to‘g‘ri va savodli foydalanishi, yoshlar uchun ijobiy til namunasi bo‘lishi lozim.

Til siyosati va qonunchilik:

Rasmiy hujjatlar, e‘lonlar, reklama yozuvlarida adabiy tilning qat‘iy me‘yorlariga amal qilish zarur. Bunda Matbuot va tilni rivojlantirish agentliklari, tilshunos olimlar o‘zaro hamkorlikda ishlashlari kerak.

Oiladagi tarbiya va ona tili:

Til avvalo oila muhitida shakllanadi. Farzandlarga adabiy nutq namunalarini ko‘rsatish, ularga badiiy asarlar o‘qib berish orqali ularning til madaniyatini shakllantirish mumkin. Texnologiyalarni savodli ishlatish – bu ham zamon talabi. Ammo bu jarayonda tilni unutmaslik, balki uni yangi vositalar bilan boyitish, zamonga mos ifoda vositalarini ishlab chiqish kerak.

Shubhasiz, internet va texnologik taraqqiyot bizga katta imkoniyatlar ochmoqda. Biroq u bilan birga ma'naviy va madaniy xavf-xatarlar ham kirib kelmoqda. Tiling – millatingdir, degan maqol bejiz aytilmagan. Agar biz tilni asrab-avaylamasak, kelajak avlod o'z ildizlaridan uzilib qolishi mumkin. O'zbek tili boy, qadimiy, ifodali va badiiy imkoniyatlarga ega til sifatida bu zamonaviy muhitda ham o'z o'rnini topa oladi. Faqat biz, til egalaridan ongli yondashuv, bilim, harakat va muhabbat talab qilinadi. Shu sababli, har birimiz zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda o'z tilimizga hurmat va mas'uliyat bilan qarasaq, o'zbek tili ham rivojlanadi, ham zamon bilan hamohang bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, internet va texnologiyalar taraqqiyoti tilga yangi imkoniyatlar bilan birga, jiddiy muammolarni ham olib keldi. O'zbek tilida qisqartmalar, xorijiy so'zlar va norasmiy iboralar keng qo'llanilishi natijasida adabiy til me'yorlari zaiflashmoqda. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida internet uslubidagi muloqot kundalik nutqqa aylanib bormoqda. Tilni asrab-avaylash va uni zamon bilan hamohang rivojlantirish har bir til egasining vazifasidir. Shuning uchun ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va tilshunoslar birgalikda harakat qilib, o'zbek tilining adabiy, ifodali va zamonaviy rivojlanishini ta'minlashi lozim.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni. – 1989 (2020 yilgi tahrir). [Elektron manba: lex.uz]
2. Devid Kristal. Language and the internet [2001].
3. Rahmonova, Z. Internet tilining o'zbek adabiy tiliga ta'siri.[2020]
4. Karimova, G. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot va yozma nutq madaniyati.[2019]
5. Qodirova, M. Zamonaviy O'zbek tilshunosligi: yangilanishlar va muammolar. [2021]
6. Hasanov, S. Texnologik kommunikatsiya va til o'zgarishlari.[2022]